



LINGUISTICAL ANALYSIS OF Y.V. GOYETE'S FAITH TRAGEDY DIRECT AND DIRECT

Furkat Soatov Rahimnazarovich ¹

¹ German language teacher at the Tashkent Financial Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4962445>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

I.V.Gyote, "Faust"
tragedy, *E.Voxidov,*
P.A.Usmon

ABSTRACT

Iogann Wolfgang Gyote is a great German poet, outstanding thinker and scientist, the founder of new era German literature, author of works on philosophy, jurisprudence, botany, geology, Geodesy

Y.V.GYOTENING "FAUST" TRAGEDIYASINING BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMASI LINGVISTIK TAHLILI

Furkat Soatov Rahimnazarovich ¹

¹ TMI nemis tili o'qituvchisi, E-mail: f.soatov@yahoo.de

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

I.V.Gyote, "Faust"
tragediya, *E.Voxidov,* *P.A.*
Usmon

ANNOTATSIYA

Iogann Volfgang Gyote buyuk nemis shoiri, atoqli mutafakkir va olim, yangi davr nemis adabiyotining asoschisi falsafa, huquqshunoslik, botanika, geologiya, geodeziyaga oid asarlar muallifi

Buyuk nemis shoiri, atoqli mutafakkir va olim, yangi davr nemis adabiyotining asoschisi Iogann Volfgang Gyote falsafa, huquqshunoslik, botanika, geologiya, geodeziyaga oid asarlar yaratgan, Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati, adabiyotini chuqur o'rganib, Firdavsiy, Fariddin Attor, Rumi, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz, Jomiy kabi shoirlar ijodi bilan tanishadi. Bu paytda Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy ijodlaridan namunalar nemis tiliga tarjima qilingan edi.

Y.V.Gyote ijodi o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab Cho'lpon, Oybek, Shayxzoda va boshqa turli yozuvchi va shoirlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Adibning "Faust" tragediyasi taniqli ijodkor Erkin Voxidov tomonidan (rus tili orqali) 1972-75-yillar, 2007-yil esa Posho Ali Usmon tomonidan bevosita, "Mag'ribu mashriq devoni" Sadriddin Salim Buxoriy tomonidan 1985-90-yillar, "Yosh Verterning iztiroblari"



romani Y.Egamova tomonidan 1975-yil o'zbek tiliga o'girilib, nashr etildi.

Gyotening "Faust" tragediyasi (1768-1832) jahon adabiyotidagi shoh asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar adibning butun ijodiy faoliyati davomidagi izlanishlarining samarasi bo'ldi. Adib bu asar ustida qarib oltimish yildan ziyod mehnat qildi (umri davomida yozilgan asar). Drama ikki qism va 12111 she'riy parchadan iborat. [1.]

Asarda ikki mangu qarama-qarshi kuchlar: yaxshilik va yovuzlik, iqror va inkor, bugun va o'tmish kurashadi. Faust - hayot oshig'i, taraqqiyot jangchisi, adolat jarchisi. Mefistofel - hayot yovi, taraqqiyot dushmani, adolat kushandasi. Tragediyada murakkab voqealar silsilasi shu ikki qahramon xatti-harakatlari orqali rivojlanib boradi.

Y.V.Gyotening "Faust" tragediyasi yuqorida takidlab o'tganimizdek 1972-yil Erkin Vohidov tomonidan o'zbek tiliga asarning har ikki qism bilvosita shunungdek taniqli tilshunos Posho Ali Usmonov tomonidan 2007-yil (35-yil mobaynida asarning faqat 1-qismini) bevosita tarjima qilib, nashr etishgan. Shu boisdan ham asarning ikkinchi qismida tahlil etiladigan idioma va maqollar aynan Erkin Vohidov tarjimasidan keltiriladi.

Y.V.Gyotening buyuk ijodkorligi shundan iboratki, u nafaqat nemis tilining jamiki so'z boyligi imkoniyatlarini ko'rsatib berdi, balki u o'z ijodida til imkoniyatlarinidan shunchalik mohirona foydalanib yangidan-yangi ibora, maqol yaratib, shu tilning boyishiga o'zining buyuk hissaini qo'shdi desak, adashmagan bo'lamiz. Boisi hozirda nemis tilida ko'plab qo'llanilib kelayotgan so'z, ibora va maqollar aynan Y.V.Gyote qalamiga mansubdir.

Quyida ijodkorning "Faust" tragediyasidan misollar keltirib o'tarkanmiz, yuqoridagi fikrlarimizga yana bir karra amin bo'lamiz.

SCHÜLER: ...Das sollt Ihr mir nicht zweimal sagen!

Ich denke mir, wie viel es nützt

Denn, **was** man **schwarz auf weiß besitzt**,

Kann man getrost nach Hause tragen.
[2. S 38. (Vers 1966 f.)]

Ushbu she'riy to'rtlikdagi qora harflar bilan alohida ajratib ko'rsatilgan (*etwas*) *schwarz und weiß besitzt(en)* [1.1. S. 1110.] iborasi o'zbek tiliga Erkin Vohidov tomonidan (bilvosita) quyida talqinda keladi:

Tolib: ...Yozib olgum bitta qo'ymay, soz,

Yozishga men juda ishqiboz.

Ayon, **neki xatga tushdi**, bas,

Uni aslo yo'qotib bo'lmas. [3. 78-b.]

Yana bir ijodkor Posho Ali Usmon (bevosita) esa ushbu misralarni quyidagicha beradi:

TOLIB: ...Takror aytishning yo'qdur zarurati,

Bilaman uning nechuk vojibligin;

Sal qoralansa bas oq qog'oz beti,

Mumkindir uyga olib borishligim. [4. 77-b.]

Olmon tilidagi ushbu *etwas schwarz auf weiß besitzen* iborasining asl mazmuni "*rasman (qog'ozda tasdiqlangan) huquqqa egalik qilish*", so'zma-so'z tarjimasida esa *oqqa qorani o'tkazmoq*, (qoraga oq bilan yozib qo'ygandek, aniq-ravshan yozib qo'yilgan) [6.] degani. Hozirda nemis tili muomalasida keng qo'llanib kelinayotgan ushbu iborani ilk bor Y.V.Gyote o'z asarida qo'llab, shu idiomaning muallifiga aylangan. Bu esa ijodkorni nafaqat buyuk



adib, baliki olmon tilshunosligiga katta xissa qo'shgan olim ekanidan darakdir.

Mutarjimlarning har ikkisi ham nemis tilidagi **Schüler** [1.1. S. 1104.] so'zini "o'quvchi" deb emas, balki "tolib" deya, asar ruhiyatiga o'sha zamon nafasini bergan.

Yuqoridagi misralar tahliliga keladigan bo'lsak, Erkin Vohidov "Denn, **was man schwarz auf weiß besitzt**" misrasini "Ayon, **neki xatga tushdi, bas**" tarzida tarjima qilib, V.N.Komissarovning leksik transformatsiya nazariyasi, ya'ni leksik-semantik almashtirishlar: konkretlashtirish, umumlashtirish uslubidan, Posho Ali Usmon esa o'sha misrani "**Sal qoralansa bas oq qog'oz beti**", deya o'girib, grammatik transformatsiya, ya'ni so'zma-so'z tarjima, gaplarning qo'shilib ketishi usulidan [6. C. 215] foydalanadi. Yuqoridagi misraga bizning fikrimiz quyidagicha:

Tolib: Takror etmoqning yo'qdir hojati!

Nima qilmoqni bilgayman o'zim

Ki, kimsaning egalik haqi,

Har yerda o'tgay uning so'zi.

Shu o'rinda har ikki ijodkorlar, Erkin Vohidov hamda Posho Ali Usmon *etwas schwarz auf weiß besitzen* iborasini o'zbek tiliga aynan mazmunini bermay, o'sha iboraga yaqin, mazmunan mos keladigan iborni mahorat bilan qo'llaydi. Bu esa transformatsiya usulining uchinchi turi, ya'ni asliyat va tarjima matnlar orasidagi mantiqiy aloqaga asoslanishdi. Agar asliyatda berilgan jumlaning tarjimada biror qismini tarjima qilmasdan adekvatligi ta'minlansa, jumlaning o'sha qismi tushirib qoldirib tarjima qilinadi va sabab natija bilan almashtiriladi. Ulardan bittasi asliyat matni bo'lsa, ikkinchisi tarjima variantidir. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan

vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi. Matndagi vaziyat o'z navbatida semantik jihatdan rivojlantiriladi.

Agar vaziyat semantik jihatdan to'g'ri rivojlantirilsa, ya'ni asliyat matni va tarjima matnidagi fikrlar bir-birlarini semantik jihatdan sabab va natija sifatida bog'lasa, transformatsiya tarjima tili normalariga rioya qilgan holda, matndagi mazmunni berishga xizmat qiladi. Yana yuqoridagi misra tarjimasida *man* shaxsiz olmoshi tarjima qilinmaydi va u matnda tushirib qoldiriladi.

Yana bir misol:

FAUST: ...O ja, bis an die Sterne weit!

Mein Freund, die Zeiten der Vergangenheit

Sind uns ein Buch mit sieben Siegeln.

[2. S 12. (Vers 575)]

jemand/etwas ist jemandem ein Buch mit sieben Siegeln [1.1. S. 316.] idiomasi odatda so'zlashuv nutqida ishlatilib, ma'nosi "sirli", "mavhum", "anglab bo'lmas", "tushunarsiz", "qorong'u", (hech bir tushunib bo'lmaydigan, (tushunish juda qiyin) narsa, jumboq) [5. 125-b.] so'zma-so'z tarjimasida "*kimdir/nimadir kim uchun 7 muhrli bir kitob*" deya tarjima qilinadi. Odatda yetti raqami azaldan sirli son hisoblanib kelingan. Yuqoridagi ibora esa nasroniy din vakillarining muqaddas kitobi Injilda aynan "sir-sinoat" ma'nosida qo'llanilgan. Demak, har bir idioma va maqol, frazeologizmni tarjimasidan avval uning kelib chiqishi, etimologiyasini lingvokulturologiyada o'rganish dolzarb va munozarali masalalardan biri ekanligini yoddan chiqarmasligimiz darkor.

Yuqorida berilgan idiomaning Erkin Vohidov talqinidagi ko'rinishi quyidagicha:

Faust: ...Sizningcha, ular yer, biz esa samo.



O'tmish asrlarga qo'l urmang also!

Yecholmaymiz sirli moziy muhrini.

[3. 32-b.]

Endi Posho Ali Usmon tomonidan qilingan tarjimini ko'rib chiqsak:

FAUST: ...Bilonihoya, yulduzlarga qadar!

O'tmishning har bir lahzasi, birodar,

Nazdimizda bir muammo – ishkalli.

[4. 30-b]

Guvohi bo'lganimizdek *jemand/etwas ist jemandem ein Buch mit sieben Siegeln* idiomasi Erkin Vohidov **yecholmaymiz sirli moziy muhrini** iborasi bilan, Posho Ali Usmon esa **nazdimizda bir muammo – ishkalli** deya darak gap bilan beradi. Erkin Vohidov ushbu misralar tarjimasida leksik transformatsiya (leksemalarning sinonimik almashinuvi) usulidan [7. 248 c.] hamda iborani so'zma-so'z tarjimasidan foydalanadi. Posha Ali Usmon esa tarjimada L.S.Barxudarovning transformatsiyalar yordamida belgilar ustida to'rt xil operatsiyalarni amalgam oshirish fikriga tayanib, uchinchi usul, qo'shish uslubidan [8. 190 c.] foydalanadi.

Quyida yuqoridagi misralarga o'z fikrimizni ilova qilib ketamiz.

Faust: Abat, to yulduzlar qadar!

Birodar, o'tmish damlari

Biz uchundir sir-sinoat onlari.

Navbatdagi misol:

FAUST: ...Nenn es dann, wie du willst,

Nenn's Glück! Herz! Liebe! Gott

Ich habe keinen Namen

Dafür! Gefühl ist alles;

Name ist Schall und Rauch,

Umnebelnd Himmelsglut. [2. S 73.

(Vers 3456 f.)]

Name ist Schall und Rauch [1.1. S. 1068.] idiomasi "besamar", "befoyda", "o'rinsiz", "ahamiyatsiz", "muhim emas", "arzimagan" (bir tiyin, sariq chaqa), "qisqa

muddatli" (lov etib yonib, puf etib o'chadigan), so'zma-so'z tarjimasida "nomi sas va dud" degan ma'noni beradi. Ushbu iborani E. Vohidov talqinida ko'rsak:

Faust: ...Buni ne atasang so'ng, bilganingni qil,

sevgi, baxt deysanmi va yoki Xudo?!

Bunga yarashiq hech topilmas nisbat,

Nom yo'q uni qamrab qolguvchi butun.

Barcha gap tuyg'uda, **so'z esa faqat**

Nurafshon falakni tutguvchi tutun.

[3. 146-b]

Posho Ali Usmon tarjimasida esa quyidagicha:

FAUST: ...Nima deya atasang uni atayver!

Xohlasang, qalb! Ishq! Iloh! Va baxt nomin ber!

Va lekin topolmam men unga loyiq ot,

Zerokiy his-tuyg'udir barcha mavjudot;

Oddiy un va tutundir biz bergan ism,

O'shandan tumanlashar osmon degan jism. [4. 30-b.]

Guvohi bo'lganimizdek, *Name ist Schall und Rauch* idiomasi Erkin Vohidov (bilvosita) tarjimada **so'z esa faqat nurafshon falakni tutguvchi tutun**, deya oddiy darak gap tarzida, badiiy o'xshatishlar bilan bergan bo'lsa, Posho Ali Usmon (bevosita) tarjimada **oddiy un va tutundir biz bergan ism** tarzida idiomani so'zma-so'z tarjima qiladi. Biz esa yuqoridagi idiomani quyidagicha berishni maqul topdik:

Faust: ...Ne deb ata, ixtiyor senda,

Xoh baxt de! Qalb! Muhabbat va yo Xudo

Meni bo'lsa aylanmoqqa so'zdan tilim judo

Bunda, muhimdir aslida hislar;

Nom esa foniy bir tutun,

Quyuyq tuman ichra chaqnab o'chgan samodagi bir uchqun.



Navbatdagi misollarimiz orqali Gyote “Faust” tragediyasida aynan “**Kopf**”, ya’ni “Bosh” so’zi bilan bog’liq idiomalarni qay tarzda mahorat bilan ishlatganini guvohi bo’lamiz.

SCHÜLER: Mir wird von alledem so dumm,

Als **ging, mir** ein Mühlrad **im Kopf herum**. [2. 215 c. (*Vers* 1946 f.)]

etwas geht jemandem im Kopf herum [1.1. S. 762.] yoki *jemand/etwas geht jemandem nicht aus dem Kopf* idiomasi mazmuni kimdir kim, yoki nimadir haqida tinmay o’ylashini bildiradi. Avvalam bor Erkin Vohidov tarjimasida:

Tolib: Anglamadim, hech narsa, chin so’z,

Bosh aylandi faqat, tindi ko’z. [3. 78 b.]

Navbat Posho Ali Usmon tarjimasiga:

TOLIB: Shu darajada qotirar bo’lar boshim,

Yurgizar birov go’yo tegirmon toshin. [4. 76-b.]

Buyuk o’zbek shoiri Erkin Vohidov yuqoridagi misra tarjimasida transformatsiyaning almashtirish usuli, ya’ni tarjima transformatsiyasining eng keng tarqalgan turi, matnni konkretlashtirish, umumlashtirish, sababni natijasi bilan almashtirish, leksik transformatsiyadan [9. c. 72-84] mahorat ila foydalangan.

Posho Ali Usmon esa grammatik transformatsiya – so’zma-so’z tarjima, gaplarning qo’shib ketishi, grammatik almashtirishlardan [6. 215 c.] foydalanadi. Yuqoridagi misraga quyidagicha fikr bildirgan bo’lardik:

Tolib: Bularning baridan ozar ahir hushim,

Boshim uzra yurguzgandek tegirmon toshin.

Navbatdagi misol:

FAUST: Was sagt sie uns für Unsinn vor?

Es wird **mir** gleich **der Kopf zerbrechen**.

Mich dünkt, ich hör ein ganzes Chor

Von hunderttausend Narren sprechen.

[2. S. 53]

sich (Dat) den Kopf (über jemanden/etwas) zerbrechen/zermarnern

[1.1. S. 762.] idiomasi nimadir ustida muntazam o’ylash, chuqur mulohaza qilish, bosh qotirish (qattiq o’ylanmog’i [5. 77-b.]), so’zma-so’z tarjimasida nimadir ustida bosh parchalamoq degan ma’noni beradi. Erkin Vohidov esa ushbu idiomani o’z tarjimasida quyidagi talqinda beradi:

Faust: Vasvasadan aqlim yo’qotsam kerak,

Bu gaplar **fikrimga sig’maydi aslo**.

Shu tobda qulog’im ostida go’yo

Barobar qichqirar yuz mingta tentak.

[3. 106 b.]

Posho Ali Usmon talqini:

Faust: Nima deb aljirar bu jodugar?

Boshim yorilay dedi, shovvoz.

Butun bir davra kuylab turar

Chiqargandek ming telba ovoz. [4. 107-b.]

Erkin Vohidov “*Es wird mir gleich der Kopf zerbrechen*” misrasidagi idioma tarjimasini “*Bu gaplar fikrimga sig’maydi aslo*”, deya tarjimaning leksik transformatsiya, ya’ni leksik-semantik almashtirishlar: umumlashtirishdan [7. 248 c.] foydalanadi. Posho Ali Usmon esa ayni shu idiomani “*Boshim yorilay dedi, shovvoz*”, deya tarjima qilib, grammatik transformatsiya [6. 215 c.], ya’ni so’zma-so’z tarjimini qo’llaydi. Shu o’rinda yuqoridagi misralarga fikrimiz quyidagicha:

Faust: Ne besamar so’z shivirlar bizga?

O’yga soldi-ku u bu boshni.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.W.Goethe. Faust. Reclams Universal-Bibliothek Band I-II. 18. Auflage. Berlin 1965.
2. J.W.Goethe. Faust, Der Tragödie erster Teil. DigBib.Or: Die digitale Bibliothek, Erstellt am 29.6.2004.
3. Y.V.Gyote. "Faust", Erkib Vohidov tarjiması, Yangi asr avlodi, Toshkent, 2015
4. Y.V.Gyote. "Faust", Posho Ali Usmon tarjiması, Alisher Navoiynomidagi O'zbekiston Milliy kutibxonasi nashriyoti, Toshkent, 2007
5. M.I.Umarxo'jayev, K.N.Nazarov. Deutsch-Russisch-Usbekisches Phraseologisches Wörterbuch, O'qituvchi, T.: 1994
6. Комиссаров В.Н. Слово о переводе – М.: Международные отношения – 1973
7. Латышев Л.К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения. М.: Международные отношения, 1981
8. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.: Международные отношения, 1975.
9. Рецкер Я.И. Что же такое лексические трансформации? "Тетради переводчика" №17, М.: Международные отношения, 1980